

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti



Ta'limga shakli, ta'limga davri:

240 kredit to'planadi, kunduzgi ta'limga shakli, 4 yil o'qiladi

Ta'limga klasifikatori:

Metrologiya va standartlashtirish muhandisi

Ilmiy izlanish qamrovi:

Kimyo va oziq-ovqat sanoati

Fakultet:

Menejment va professional ta'limga

Yo'nalish kodi:

60711300

Kafedra mudiri:

Ismoilov Bobur Xoliqberdiyevich, email: smmxk@tkti.uz

O'quv dasturining maqsad(lar)i:

Mehnat bozori talablariga javob beradigan, oliy ma'lumotli, yuqori professional malaka va ko'nikmalarga ega bo'lgan metrologiya va standartlashtirish muhandisi bo'yicha mutaxassislarni (bakalvr va magistr) tayyorlash hisoblanadi.

Professional faoliyatga kirish:

bakalavriat ta'limga yo'nalishi – O'zbekiston Texnik jixatdan tartibga solish agentligi va uning hududiy tizim tashkilotlari bilan o'zaro mustahkam aloqalar o'rnatilgan bo'lib, korxonalarda mavjud metrologik, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifat menejmenti tizimlarini jorish qilish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan muammolarga yechim topish maqsadida ilmiy ishlar olib borilmoqda. Magistratura talabalariga korxonalardagi mavjud muammolarga asoslangan dissertatsiya mavzulari berilgan, ular asosan, milliy standartlarni xalqaro standartlar talablariga uyg'unlashtirish, texnik reglamentlar va xalqaro standartlar asosida mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash, mahsulotlar raqobatdardoshligini hamda eksport salohiyatini yanada oshirishga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti



| 1-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori | 2-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|-----------|------------------------------------|-----------------|-----------------------|------------------|--|------------------------------|-----------------------|
| | | | | | | | |
| DIN1104 | Dinshunoslik | 4 | | O'RT1204 | O'zbek (rus) tili | 4 | |
| UNK1108 | Umumiy va noorganik kimyo | 4 | | UNK1108 | Umumiy va noorganik kimyo | 4 | |
| XT1108 | Xorijiy til | 4 | | XT1108 | Xorijiy til | 4 | |
| FIZ1210 | Fizika | 4 | | FIZ1210 | Fizika | 4 | |
| OM1315 | Oliy matematika | 4 | | OM1315 | Oliy matematika | 4 | |
| MKG1106 | Muhandislik va kompyuter grafikasi | 6 | | TTAT1106 | Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari | 6 | |
| ORGK1104 | Organik kimyo | 4 | | | | | |
| 3-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori | 4-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
| | | | | | | | |
| ANK2306 | Analitik kimyo | 6 | | SIFA2311 | Sifat asoslari | 5 | |
| TOV2306 | Tovarshunosligi | 6 | | SIFA2301 | Sifat asoslari (kurs ishi) | 1 | |
| XVG2306 | Xavfsizlik va gigiyena | 6 | | MIChS2404 | Mahsulot ishlab chiqarish va sifat | 4 | |
| SIFA2311 | Sifat asoslari | 6 | | MET2410 | Metrologiya | 6 | |
| OFA2306 | O'lchashlarning fizikaviy asoslari | 6 | | TXSS2404 | Tovarlarni xalqaro savdoda siniflash va sertifikatlash | 4 | |
| | | | | | TXT2406 | Texnik xujjalarni tayyorlash | 6 |

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti



| 5-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori | 6-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
|-----------|------------------------|--|-----------------------|-----------|------------------------|--|-----------------------|
| | | | | | | | |
| | FAL3504 | Falsafa | 4 | | EKA3504 | Ekologiya | 4 |
| | MET2410 | Metrologiya | 4 | | SMT3606 | Sifat menejment tizimi | 6 |
| | STAS3504 | Standartlashtirish asoslari | 4 | | SMT3601 | Sifat menejment tizimi (kurs ishi) | 1 |
| | Tanlov fanlar | | | | | | |
| | TIQ3504/ KOIF3504 | Tovarlarni identifikatsiyalay va qalbakilashtirish/ Kimyo va oziq ovqat mahsulotlarini identifikatsiyalash va falsifikatsiyalash | 4 | | MUHP3602/ UMPE3602 | Muhandislik psixologiyasi/ Umumiy pedagogika | 2 |
| | FKK3504/ AKMB3504 | Fizik, kolloid kimyo/ Analitik kimyoning mahsus boblari | 4 | | FUMH3605/ KHO'T3605 | Fuqaro muhofazasi/ Korxonalar hujjalarni o'zbek tilida yuritish | 5 |
| | IO'A3504/ NTO'A3504 | Intelektual o'lchov asboblari/ Nazoratning texnologik o'lchov asboblari | 4 | | | | |
| | UKT3504/ OOTA3504 | Umimiy kimyoviy texnologiya/ Oziq-ovqat texnologiyasi asoslari | 4 | | | | |
| | YO'RK3502 | Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi | 2 | | | | |
| 7-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori | 8-semestr | Fan kodi | Fan nomi | Kredit miqdori |
| | | | | | | | |
| | SIM3604 | Soha iqtisodiyoti va menejmenti | 4 | | KOSN4806 | Kimyo va oziq ovqat mahsulotlari sifat nazorati | 6 |
| | KOSE4706 | Kimyo va oziq ovqat mahsulotlari sifat ekspertizasi | 6 | | TJTS4805 | Texnik jixatdan tartibga solish asoslari | 5 |
| | Tanlov fanlar | | | | | | |
| | SMSU4706/ SMTB4706 | Sifat menejment tizimini boshqarishda statistik usullar/ Sifat menejment tizimini baholash | 6 | | TJTS4801 | Texnik jixatdan tartibga solish asoslari (kurs ishi) | 1 |
| | SLAJ4706/ MBIA4706 | Sinov laboratoriyalarini akreditlash jarayonlari/ Muvofiqlikni baholash idoralarini akreditlash jarayonlari | 6 | | | | |
| | SIFA4704/ SMTS4704 | Sifat auditi/ Sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish | 4 | | | | |
| | OOXX4704 OOXM4704 | Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini xalqaro standartlar asosida taminlash/ Oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizlik menejment tizimlari | 4 | | KLM4804/ SIFO'4804 | Kvalimetriya/ Sifatni o'lhash | 4 |

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti

O'rganish natijalari:

Bilim va tushunchalar

- A1** Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va sifatni boshqarish sohalariga oid asosiy tushunchalarini, nazariy, amaliy va qonuniy asoslarini tegishlicha tushuntira oladi;
- A2** Standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va sifatni boshqarish tamoyillarini, me'yoriy va texnik xujjalarni mazmunini, o'lchash jarayonlari va elementlarini, standartlarning turlari va tofalarini, sertifikatlashtirish sxemalarini, texnik jixatdat tartibga solish va sifat menejmenti tizimlarini tavsiflay oladi hamda ularni iqtisodiyot, ishlab chiqarish va xalq xo'jaligidagi ahamiyatini tushutira oladi;
- A3** Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solishning nazariy, amaliy va qonuniy asoslarini biladi, sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarini tushuna oladi, ishlab chiqarishda sifatni ta'minlash asoslarini biladi, iqtisodiyot va ishlab chiqarishning barqaror rivojlanishi tushunchalarini tavsiflay oladi;
- A4** Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy nazariy jihatlari va o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, sifat va xavfsizlikni ta'minlash tushunchalarini tavsiflay oladi va tashkilotlar va ishlab chiqarish tarmoqlarida metrologik ta'minlash, standartlashtirish va sifatni boshqarish kabi ishlarni tashkillashtirish hamda yuritish malakasiga ega;
- A5** Texnik jihatdan tartibga solishning asosiy nazariy jihatlari va o'lchashlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash, sifat va xavfsizlikni ta'minlash tushunchalarini tavsiflay oladi va tashkilotlar va ishlab chiqarish tarmoqlarida metrologik ta'minlash, standartlashtirish va sifatni boshqarish kabi ishlarni tashkillashtirish hamda yuritish malakasiga ega;
- A6** Mahsulotlar sifati va xavfsizligini baholash hamda nazorat qilishning usullari qo'llay oladi.

Texnologik tahlil

- B1** Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti ta'lim yo'nalishi mahsulotlar sifati va xavfsizligini xalqaro standartlar talablarini asosida ta'minlash shuningdek tovarlarni jaxon bozorida raqobatbardoshligini oshirish va eksport salohiyatini yanada kengaytirishga xizmat qila olishini tushuntirish qobiliyatiga ega;
- B2** Sohalarda metrologiya, standartlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va sifatni boshqarish bilan bog'liq muammolarni aniqlash va shakkantirish hamda ularni bartaraf etish bo'yicha chora tadbirlarni amalga oshira oladi, mutaxasisligi doir o'z bilim va ko'niklarini qo'llay oladi, mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalarida metrologik ta'minlash, sifat va xavfsizlikni ta'minlash usullari va vositalarini tushuna oladi;
- B3** O'lchashlarni bajarish, o'lchash natijalarini qayta ishslash va xatoliklarni topish, mahsulot (mahsulot, ishlarni, xizmatlar)ni serifikatlashtirish, me'yoriy, texnik xujjalarni ishlab chiqish va joriy etish, hujjalarni monitoringini olib borish, hujjalarni qayta ko'rib chiqish, o'zgartirishlar kiritish va rasmiylashtirish, xalqaro standartlarning milliy standartlar talablarini bilan uyg'unlashtirish va ularni qo'llash qobiliyatlariga ega;

Texnologik dizayn

- C1** Mahsulotlar sifati va xavfsizligini xalqaro standartlar talablarini asosida ta'minlash shuningdek tovarlarni jaxon bozorida raqobatbardoshligini oshirishda bilim va tushunchalarini qo'llay oladi, sifat tahlilini amalga oshira oladi;
- C2** Sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarini korxonalarida ishlab chiqish va joriy etish hamda uni sertifikatlashtirish tartib-qoidalarini, texnik reglamentlar, standartlar va moyoriy xujjalarni bilan ishslashni, iqtisodiyotning turli sohalarida va ishlab chiqarish korxonalarida standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish masalalari bo'yicha ishlarni tashkil qila oladi.

Tadqiqot

- D1** Ma'lumotlar bazalari va boshqa axborot manbalarida metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish haqida kerakli kasbiy va ilmiy ma'lumotlarni, sifat va xavfsizlikni ta'minlashning ilmiy tadqiqot usullarini topa oladi, metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish sohasida yutuqlarini aniqlay oladi, sifat asoslarini tushuntira oladi;
- D2** Mahsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlash hamda eksport salohiyatini yanada oshirish maqsadida zarur shart-sharoitlarni yaratish uchun xalqaro standartlarning milliy standartlar bilan uyg'unlashtirish usullarini tahlil qilish va ularni qo'llash qobiliyatiga ega;
- D3** Maxsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar rejasini tuzish va o'tkazish, tadqiqot natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarish; Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va sifatni boshqarish sohasidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini topish; Maxsulotlar sifati va xavfsizligini ta'minlashning xalqaro menejment tizimlaridan foydalanish qobiliyatiga ega.

Amaliy tadbirlar

- E1** Iqtisodiyotning texnika-texnologiya, menejment va marketing sohalaridagi ishlab chiqarish, savdo-nazorat va istemol bilan bog'liq bo'lgan turli metrologik, sifat boshqaruvi va sertifikatlashtirish bo'yicha masalalar bilan shug'ullanish, hamda me'yoriy xujjalarni va standartlar bilan ishslash;
- E2** Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, texnik jihatdan tartibga solish va sifatni boshqarish sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etishda nazariy va amaliy bilimlardan foydalanish, mahsulotlar ishlab chiqarishda menejment tizimlarni tanlash, ishlab chiqarish jarayonlarida nazorat parametrлarni aniqlash va sifat nazoratini amalga oshirish qobiliyatiga ega;
- E3** Ishlab chiqarishda texnologik jarayonlari muhitining ob'ektlari, mahsulot, xom-ashyo, yordamchi materiallar, me'yoriy va texnik hujjalarni, sifat va xavfsizlik menejmenti tizimlarni holatlarni tavsiflab baholay oladi, sifatsiz nostonstandart mahsulotlarning paydo sabablari va manbalarni tushuntira oladi;
- E4** Ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi barcha xavfli omillarni aniqlay oladi va ularni yuzaga kelish manbalarni aniqlay oladi va ularni bartaraf etish choralarini ko'ra oladi.

Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti



O'rGANISH NATIJALARI

Shaxsiy ko'nikmalar

- F1** Mustaqil va jamoada samarali ishlash, jamoada o'zini madaniyatli tutish, tipik va atipik vaziyatlarda ishlash qobiliyatiga ega;
- F2** Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarish doirasida keng jamoatchilik bilan ona tilida va chet tilida muloqot qila oladi va ijtimoiy, ishlab chiqarish va texnik soha bo'yicha tushunchalarini tushuntirish qobiliyatiga ega;
- F3** Metrologiya, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va sifatni boshqarishdagi mavjud muammolarning yechimlarini jamiyat iqtisodiyot va atrof-muhitga ta'sirini tushuntira oladi, kasbiy etika va ishlab chiqarish faoliyati normalariga rioya qiladi, sifat va xavszilikni ta'minlashda mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyatiga ega bo'ladi;
- F4** So'zamollik va tadbirdorlik qobiliyatları, boshqaruvchanlik, rivojlanish xususiyatlarını tushuntira oladi;
- F5** Mustaqil, holistik va ob'yektivlik, uzlusiz tarzda o'z ustida ishlash, texnologik taraqqiyot bilan birga takomillashish qobiliyatiga ega.

